

## BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA ONA TILI FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEKNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Adizova Nodira Baxtiyorovna,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, boshlang'ich ta'lism kafedrasini dotsenti. Buxoro davlat  
pedagogika instituti

<https://orcid.org/my-orcid?orcid=0000-0002-0469-1705>

Olimova Sabina Utkirovna,

Boshlang'ich ta'lism yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.2.2.010>

*Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunning talabiga aylangan innovatsion ta'lism texnologiyalarini dars jarayoniga tatbiq etish, boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini tashkil qilish va amalga oshirishda innovatsion ta'lism texnologiyalarining o'rni va ahamiyati haqidagi fikrlar bayon etilgan.*

*Kalit so'zlar: innovatsiya, texnika, texnologiya, ta'lism innovatsiyalari, pedagogik taxnologiya, pedagogik jarayon, "3 bo'g'inli so'z", "Yashil va qizil kartochka" metodlari.*

## РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ РОЖДНОМУ ЯЗЫКУ В СИСТЕМЕ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Адизова Нодира Бахтиоровна,

доктор философских наук по филологическим наукам, доцент кафедры начального образования. Бухарский государственный педагогический институт

Олимова Сабина Уткировна,

Учащийся начального образования

*Аннотация: В данной статье изложены представления о роли и значении инновационных образовательных технологий при внедрении современных образовательных технологий в учебный процесс, организации и проведении уроков родного языка в начальных классах.*

*Ключевые слова: инновация, методика, технология, образовательные инновации, педагогическая технология, педагогический процесс.*

## THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING MOTHER LANGUAGE SCIENCE IN PRIMARY EDUCATION SYSTEM

Adizova Nodira Bakhtiyorovna,

doctor of philosophy in philological sciences, associate professor of the department of elementary education. Bukhara state pedagogical institute

Olimova Sabina Utkirovna,

A student of primary education

*Abstract: In this article, the ideas about the role and importance of innovative educational technologies in the implementation of modern educational technologies in the teaching process, organization and implementation of mother tongue lessons in elementary grades are presented.*

*Key words: innovation, technique, technology, educational innovations, pedagogical technology, pedagogical process.*

KIRISH. XXI asr texnologiya asri ekanini inobatga olgan holda bugungi kunimizni zamonaviy texnologiyalsiz tasavvur qilolmaymiz. Shu bilan birga ta'lism tizimi va uni o'qitish ham bundan mustasno emas. Buning yaqqol isboti sifatida davlat rahbarimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2017-yil aytgan fikrlarini olishimiz mumkin: "Talabalar shaharchasida minglab talabalar, o'qituvchilar bor, ularga sharoit yaratishimiz kerak. Innovatsiya baribir yoshlardan chiqadi. Ularga bir maydoncha

yarataylik. Yangi tashkil qilingan innovatsiya vazirligi ham shu yerda joylashsin”[1].

Innovatsion texnologiyalarning ta’lim tizimiga kirib kelishi bu-ta’lim tizimida tub burilish yasadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Sababi aynan innovatsion texnologiyalar orqali bir qancha ortiqcha vazifalar yengillashtirildi desak bo‘ladi. Birinchida, ortiqcha “qog‘ozbozlik”lar kundalik, jurnal baholar daftarchalari va shu kabi bir qanchalarning elektron tizimga almashtirilishi buning yaqqol isbotidir. Ikkinchidan, ta’lim beruvchi endi asosiy diqqatini dars va uning samaradorligiga qarata boshladi. Sababi turli xildagi malaka oshirish testlari va ularning to‘liq kameralashtirilgan nazorat ostida olinishi ularga qo‘shimcha mas’uliyat yukladi.

Innovatsiya yangilik, o‘zgaruvchanlik yoki rivojlanish demakdir. Ta’lim sohasida innovatsiyalar, yangi o‘quv usullari, texnologiyalar yoki ma’lumotlar bilan birga amalga oshiriladigan yangiliklar va rivojlanishlardir. Innovatsiya ta’lim jarayonini samaraliroq tashkil qilishning asosi hisoblanadi. Shu sababli bugungi kunda aynan ushbu yangilik kiritish fanning dolzarb masalalaridan biri sifatida qaralmoqda.

**METODLAR.** Innovatsion texnologiya asosida tashkil qilingan darsning samaradorligi an’anaviy dasrdan ko‘ra ancha yuqori bo‘ladi. Sababi unda o‘quvchilarga mavzu yanada tushunarliroq bo‘lishi maqsadida turli xil texnika va texnologiyalardan foydalaniлади.

Texnika-biror maqsadi muvaffaqiyatlari bajarish uchun qo‘llaniladigan usullar, vositalar va texnologiyalarni ifodalovchi umumiylar tushunchasi. Bu dasturiy, mexanik, elektr, optika yoki boshqa sohalarda qo‘llaniladigan vositalar va tizimlarni o‘z ichiga oladi.

Texnologiya-ilg‘or usullar, vositalar va texnik vositalarni amalga oshirish orqali foydalaniлади, ma’lim bir maqsadni muvaffaqiyatlari bajarish uchun qo‘llaniladigan xususiy tizim va barchasini ifodalovchi umumiylar tushunchadir[6].

Texnologiya – biror ishda, mahoratda, san’atda qo‘llaniladigan usullar, yo‘llar yig‘indisi. Ilg‘or texnologiya vositalardan foydalanish o‘quvchilarda darsga bo‘lgan qiziqishni yuqori darajada oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli pedagog dars jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanishi zarur. Innovatsion ta’lim texnologiyalarini dars jarayoniga tatbiq etish o‘qituvchida quyidagi bilim va ko‘nikmalar bo‘lishini talab etadi:

- AKT bo‘yicha puxta ko‘nikmaga ega bo‘lishi;
- ilg‘or ta’lim texnologiyalarini puxta egallashi;
- yangi pedagogika texnologiyalar bilan birgalikda xorijiy texnologiyalardan xabardor bo‘lishi;
- ta’lim jarayonini tashkil etishda didaktik o‘yin va interfaol usullardan keng foydalana olishi;
- dars mobaynida turli harakatli o‘yinlardan foydalanishi;
- o‘z ustid uzlusiz ishlashi, yangiliklardan doimiy ravishda xabardor bo‘lishi lozim.

Innovatsion texnologiyalardan foydalaniладган darslarning samaradorligi nima uchun yuqori bo‘ladi? Sababi innovatsion texnologiyalardan foydalaniладган darslarda o‘qituvchi dars jarayonini tashkil etishdan oldin uning har bir qismi va bo‘limini foydalanayotgan AKT vositalariga kirdizishi, ya’ni darsdan oldin uni to‘liq har bir daqiqasigacha ishlab chiqishi, qo‘shimcha material va vositalar uchun yanada izlanishi zarur. Hozirgi kunda ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan innovatsion texnologiya va metodlar o‘quvchilarning yuksak bilim cho‘qqilarini egallab, ularni fikrlashga, o‘z shaxsiy va mustaqil qarashlarga ega bo‘lishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Har bir o‘qituvchi dars o‘tishdan oldin darsda qo‘llaydigan innovatsion pedagogik texnologiyalarning har bir elementigacha puxta o‘rganishi va tadqiq qilishi lozim. Tabiiyki, o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi dars samaradorligini oshirish va uni yanada takomillashtirishi uchun zamin yaratadi.

Ta’lim jarayonini zamонавий texnologiyalar asosida tashkil etish pedagogik jarayonning ham yaxshilanishiga olib keladi. Chunki elektron adabiyotlar, turli xildagi multimedion mashqlar va slaydlarni tayyorlash pedagog, kompyuter dasturchilari va ma’lum soha mutaxasislarini bir maqsad asosida birlashtirish va pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish uchun hissa qo‘shadi.

Boshlang‘ich ta’lim ona tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalaniладни biz bolalarga dars berishning ilk kunidanoq joriy etishimiz mumkin. Bunda darsni tashkil etishdan oldin mavzuga doir kitobda berilgan ma’lumotlar va shu mavzu doirasidagi qo‘shimcha adabiyotlardan ma’lumotlarni yig‘ib, ularni multimedion ko‘rinishga keltirish va bolalarga taqdim etish kifoya. Sababi o‘yin faoliyatidan endigina maktabga qo‘ygan o‘quvchida darsni o‘zlashtirish, qirq besh daqiqa mobaynida bir partada o‘tirish va shunchaki og‘zaki usulda bayon etilgan darsni tushunish juda qiyin kecishi mumkin.

Innovatsion texnologiya, masalan multimedia va slaydlar yoki turli xildagi rolli harakatlar bilan mavzuni tushunish ularda ham darsga bo‘gan qiziqishni, ham mavzuni tushunish darajasini oshirishi mumkin[13].

Bunday natijaga erishish amaliyotda o‘quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarini qo‘llashni taqozo etadi. Ular juda xilma-xildir. Hozirgi zamonaviy metodlar yoki o‘qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik darslar o‘quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijobiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, ijobiy fazilatlarni tarbiyalashga va ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Innovatsion texnologiya va metodlar bu o‘quv jarayonida asosiy boshqaruvchi - o‘qituvchi, boshqariluvchi - o‘quvchifaoliyati birgalikda yo‘naltiriladi va bu jarayonda o‘qituvchidan ham o‘quvchidan ham mustaqillik va ijodkorlik sifatlarini talab etadi. Chunki ulardan unumli va samarali foydalanish qo‘srimcha bilimlarni talab qiladi. Shu sababli, o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham o‘ziga yuklangan mas’uliyatni his qilgan holda dars jarayoniga ijodkorlik bilan yondashishga harakat qiladi.

Ona tili darslari davomida o‘quvchilar bevosita turli qoida va ularning mazmuni bilan tanishishadi. Dars mobaynida slaydlar orqali aytilayotgan fikrimizni isbotlab, ko‘rgazmali tarzda amalga oshirishimiz esa, mazvu o‘quvchilar yodida yanada yaxshiroq qolishi va dars samaradorligining oshirilishiga yordam beradi. O‘quvchilar mavzuni turli xil xotirada saqlash usullari orqali yodda saqlashadi. Bular: tinglash, yozish, ko‘rish va o‘qish. Slayd va shu kabi innovatsion ta’lim texnologiyalari bularning barchasini o‘zida mujassam etadi. Aniqroq qilib aytganda, maxsus doskada namoyon etilayotgan ma’lumotlar matn holida taqdim etilgani ularning ko‘rish va o‘qish orqali yodda qolishiga yordam bersa, uning audio va video shakli esa, uning tinglash orqali yodda qolishini, ma’lumotlarni o‘quvchilar o‘z daftarlari ko‘chirib olish bilan o‘zlarining yozish orqali yodda saqlash qobiliyatlarini ishga solishadi.

Hozirgi kunda asosiy pedagogik texnologiyalar imperik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, adattiv, inkulyuziv va boshqa texnologiyalardir. Dars jarayonida bu texnologiyalarni tanlay bilish - bu o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq. Pedagogik texnologiya ta’lim – tarbiya jarayonini yuksak mahorat san’at bilan boshqarishdir. Pedagogik texnologiyalar pedagogik jarayonning ijtimoiy maqsadga yo‘naltirilgan usul, shakl va uyushmalar yigindisiga asoslangan loyihadir. Shuningdek, pedagogik texnologiyalar-pedagogik jarayonni yangicha qurish boshqarish tashkil etishning mexanizmidir.

Empirik-(tajriba) sezgi a’zolari orqali bilim olish. Bu texnologiyada asosiy e’tibor sezgi a’zolarining tabiiy rivojlanganlik imkoniyatlariga tayangan holda bilim berish va ularni yanada takomillashtirib borishga qaratiladi.

Kognitiv-(bilishga oid) atrofdagi olam to‘g‘risidagi bilimlar doirasini kengaytirish texnologiyasi. U tabaqaqlash (tarkibiy qismlarga ajratib o‘rganish) tafakkurini shakllantiradi, bilish ehtiyojlarini rivojlantiradi.

Evristik-(haqiqatni topish) yo‘naltiriuvchi savollar berish yo‘li bilan ta’lim berish tizimi. Topqirlik, faoliytni rivojlantirishga xizmat qiluvchi, o‘quv-izlanish ta’lim metodi.

Optimallashgan (ko‘p variantlardan eng ma’qulini, mosini, muvofig‘ini tanlash) tafakkurni rivojlantiradi.

Kreativ-(ijodiy) tadqiqot xarakteriga, xususiyatiga ega bo‘lib, o‘quvchilarda maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantiradi.

Inverison-(almashtirish) axborotlarni turli tomonidan o‘rganish, o‘rnini almashtirish xususiyatiga ega bo‘lib, tafakkur (fikrlash) tizimini shakllantiradi.

Integrativ-(yaxlitlash) axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko‘p kichik qismlarning o‘zaro ajralmas bog‘liqligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to‘g‘ri xulosani aniqlash.

Adaptiv-(moslashtirish) axborotlarni va ulardan foydalanish jarayonini o‘rganish hamda o‘rgatish uchun qulaylashtirish, moslashtirish asosida kutilgan natijaga erishish.

Inklyuziv-(tenglik) o‘qituvchi bilan o‘quvchining o‘zaro munosabatlarda tenglik asosida ta’lim tarbiya jarayonini tashkil qilish. Shu bilan birga, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning sog‘lom o‘quvchilar bilan birgalikda o‘qishini tashkil qilish pedagogik texnologiyasi[3].

Yuqorida bayon etilgan istalgan dars tashkil etish texnologiyalari bilan biz innovatsion ta’lim texnologiyalarini uyg‘unlashtirganimizda biz yanada yuqori natijaga erishamiz. Maktab ta’limining asosiy maqsadi o‘quvchilarga ma’lumotlarni aniq va tushunarli qilib yetkazib berishfan iborat. Bu jarayoni tashkil etish uchun esa innovatsion texnologiyalarning o‘rni yuqori. Sababi ular yaratib bergen qulayliklar sababli nafaqat, ta’lim oluvchilarning, balki ta’lim beruvchilarning qo‘srimcha bilimlarni egallash va ularni tatbiq etish imkoniyatini yaratib beradi. Firk boshida ta’kidlab o‘tganimizdek,

innovatsion ta’lim texnologiyalarini ta’lim beruvchi dars jarayonida qo‘llash uchun, avval o‘zi uni mukammal darajada o‘rganishi, dars jarayoniga to‘g‘iri moslashtira olishi va tashkillashtira olishi zarur. Bu esa ta’lim beruvchilarni ham qo‘shimcha ma’lumotlar izlashga va o‘rganishiga olib keladi.

Ta’lim sifatini oshirish bu o‘qituvchi va o‘quvchining ta’lim jarayonida hamkorlikda ish yuritsagina yuzaga keladi. Innovatsion ta’lim texnologiyalari esa bu jarayonni tashkil etishning asosiy omili hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlar asosida 4-sinf darsligidagi “Tovuq va tulki” mavzusini ko‘rib chiqsak.

Ushbu darsni tashkil etish mobaynida AKT vositalaridan foydalansak o‘quvchilarga mavzuni tushunish yanada osonlashadi. Darsni boshlash mobaynida o‘quvchilar diqqatini yig‘ish maqsadida “3 bo‘g‘inli so‘z” didaktik o‘yinini qo‘llaymiz.

O‘yinning borishi:

- o‘quvchilardan ixtiyoriy bittasi tanlanib, sinfdan tashqarida kutish tayinlanadi;

- qolgan o‘quvchilar uchga bo‘linib (asosan, qatorlari bo‘yicha), 3 bo‘g‘inli so‘z tanlab olinadi; (Masalan, bugungi mavzuga mos mu-g‘om-bir so‘zi)


- tanlangan so‘z bo‘g‘inlarga bo‘linib, 3ta qatorga bittadan bo‘g‘in biriktiriladi;

- o‘qituvchi o‘quvchilarga tashqarida turgan o‘quvchi sinfxonasiga kirganida 3 gacha sanaganidan so‘ng, birgalikda barcha qatordagi o‘quvchilar o‘zlariga biriktirilgan bo‘g‘inni aytishlari tayinlanadi;

- sinfxonasiga tashqaridagi o‘quvchi kiradi va 1,2,3ga sanalib so‘z bo‘g‘inlari turli guruqlar jo‘rligida bir vaqtدا aytildi;

- tanlab olingan o‘quvchi zukkolik bilan bu so‘zni topishi kerak bo‘ladi.

Ushbu metod orqali o‘quvchilarning diqqatlari jamlanibgina qolmay, kayfiyatlari ham ko‘tariladi. Bundan tashqari “mug‘ombir” so‘zi qaysi hayvonga tegishli ekanini so‘rab, didaktik o‘yinni yangi mavzu bilan bog‘lab ham olamiz.



Ushbu bog‘lanishni slaydda aks ettirish orqali o‘quvchilarda sinonim so‘zlarga oid tushunchani ham takrorlab o‘tishimiz mumkin.



Xalq do‘sitiagi-yurt boyligi.

Shu o‘rinda o‘quvchilarga ushbu maqol sharhi sifatida hozirda ro‘y berayotgan notinch yurtlardagi voqealar va ular haqida qisqa videorolik (2daqiqalik) qo‘yib bersak, maqsadga yanada muvofiq bo‘ladi.

Shundan so‘ng darslikda berilgan masal va uning yozuvchisi haqida subbat qurishimiz mumkin. Matnni o‘qib yoki imkonib o‘lsa videorolik sifatida tomosha qilgandan so‘ng, undagi obrazlarga tegishli xarakterlarni elektron doska yoki slaydda ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin.



Epchil,aqlli,  
o‘ylab ish tutadigan




Mug‘ombir,ayyor,  
quv,yolq’onchi

Ushbu bog'lanishni slaydda aks ettirish orqali o'quvchilarda sinonim so'zlarga oid tushunchani ham takrorlab o'tishimiz mumkin.

Mavzuni yanada mustahkamlash maqsadida quyidagi savollarga javob yozish o'quvchilarga topshiriq sifatida beriladi:

- 
1. Tovuq va tulki qayerda uchrashib qoldilar?
  2. Tulki nima sababdan hiyla ishlatmoqchi bo'ldi?
  3. Nima deb o'ylaysiz uzoqdan kelayotgan itlar soni qancha edi?
  4. Tovuq nima uchun tulkining hiylasiga uchmadi?
  5. Siz masaldan qanday xulosa chiqardingiz?
  6. Nima uchun muallif to'satdan taklif etilgan do'stlikdan ehtiyoj bo'lishga chaqirgan?

Bundan so'ng o'qituvchi slayd orqali yoki elektron doskadan foydalangan holatda o'quvchilarga uchbu jadvalni taqdim etadi:



Fikrlar to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.		
Tur	Fikr	✓ / ✗
1	Masal qahramoni tovuq xushmuomala edi	
2	Masalda tovuq ishonuvchan qilib ta'riflangan	
3	Masaldagi tovuqning fe'l-atvori kabi insonlar hayotda yo'q	
4	Tovuq daraxt shoxidan pastga tushmadi	
5	Tovuq uzoqdagagi itlarni rostdan ham ko'rdi	

Bu mashq o'quvchilarga "Yashil va qizil kartochkalar" metodi orqali berilishi yanada maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda barcha o'quvchilarga yashil va qizil rangdagi kartochkalar tarqatib chiqiladi va to'g'ri aytilgan fikr uchun yashil, noto'g'ri fikrga esa qizil kartochka ko'tarilishi kerakligi o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi. Ushbu metod orqali o'quvchilarning ziyrakliklari va mavzuni qay darajada mukammal tushunganliklari ayon bo'ladi. Uyga vazifa sifatida masalni rollarga kirishgan holatda o'qib kelishni mashq qilish topshiriladi.

Xulosa va tavsiyalar. Rivojlangan davlatga aylanishni o'zimizga maqsad qilib qo'ysak, bunda investitsiyani birinchi navbatda ta'limga qaratishimiz va uni zamon talabiga mos sifatda tashkil etishimiz zarur. Davlatimiz kelajagiz yoshlar qolida ekanligini inobatga olgan holda ularning ta'lim sifatini yuqori qilib qo'ygan holatdagina yuksalishga erishishimiz mumkin. Ta'lim sifatini samarali amalga oshirish uchun esa uni talab darajasida qilib tashkil qilishimiz va uni o'z maqsadiga erishishi uchun bor imkoniyatlardan unumli darajada foydalana olishimiz lozim. Darslar davomida innovatsion texnologik vositalaridan foydalanish o'quvchilarning darsga jalb qilinishi va mavzuni tez va oson tushunish darajasini oshirishga

yordam beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

SH.M.Mirziyoyev. Konstitutsiya-erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir-Toshkent: O'zbekis.

Adizova, Nodira, and Uktamova Mohinur. «Interfaol mashqlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirish.» E Conference Zone. 2023.

Ishmuhammedov R.,Abduqodirov A., Pardayev A. «Ta'limdi innovatsion texnologiyalar» - T.:Oqituvchi, 2003

Adizova, Nodira. «Nominal description of the bukhara.» Web of Scientist: International Scientific Research Journal 2.11 (2021): 330-335.

Nigora, Adizova, and Adizova Nodira. «Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari.» Conferences. 2021.

Bakhtiyorovna, Adizova Nigora, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. «The role of the fun genre in children's spiritual development.» Middle European Scientific Bulletin 4 (2020): 38-40.

Bakhtiyorovna, Nodira Adizova. «Place Names and Related Concepts Study.» European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630) 14 (2022): 153-157.

Rakhmonovich, Adizov Bakhtiyor, and Nodira Adizova Bakhtiyorovna. «Linguistic classification of toponyms of bukhara district.» Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL) 2.09 (2021): 1-7.

Bakhtiyorovna, Adizova Nodira, and Boymuradova Sadoqat. «Use Foreign Experience to Improve the Reading Literacy of Primary School Students.» Spanish Journal of Innovation and Integrity 5 (2022): 306-309.

Bakhtiyorovna, Adizova Nodira, and Jamolova Lyubat Ilkhomovna. «Таълим Муассасаларида Таълим-Тарбия Жараёнларида Интерфаол Методлардан Фойдаланишнинг Ҳозирги Кундаги Холати.» Spanish Journal of Innovation and Integrity 5 (2022): 330-333.